



BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

PhD Akbarova Sayyora Shuxratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-1242-2580

s.akbarova2704@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatlarida kommunikativ kompetensiyaning o'rnini o'rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu jarayonda uchrayotgan muammolar borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ, kompetentlik, ta'lim, kompetensiya, mutaxassis, zamonaviy yondashuvlar, pedagogik faoliyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

PhD Акбарова Сайёра Шухратовна

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье автором рассматривается о проводимой работе по развитию коммуникативной компетентности будущих специалистов, изучению роли коммуникативной компетентности в профессиональной деятельности будущих специалистов и проблемах, возникающих в этом процессе.

Ключевые слова: коммуникативность, образование, компетентность, специалист, современные подходы, педагогическая деятельность.

PEDAGOGICAL ASPECTS FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCES OF FUTURE SPECIALISTS

PhD Akbarova Sayyora Shukhratovna

Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, the author discusses the ongoing work to develop the communicative competence of future specialists, given the results about the study of the role of communicative competence in the professional activities of future specialists and the problems that arise in this process.

Keywords: communication, education, competence, specialist, modern approaches, pedagogical activity.

Kirish.

Bugungi kunda jamiyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida yuqori malakali mutaxassislariga yuksak talablar qo'yilgan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning har qanday sohasi uchun mutaxassis tayyorlash uning yuqori malakasini, harakatchanligini, uning shaxsini rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlashi kerak. Mutaxassisning kompetensiyasi tobora murakkablashib borayotganligi sababli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ijtimoiy tajribaning kengayishi, axborotni taqdim etish va qayta ishlashning yangi va juda xilma-xil shakllarining paydo bo'lishi, jamiyatning mutaxassisga bo'lgan so'rovlarining tobora ortib borishi bilan izohlanmoqda.

Zamonaviy globallashuv sharoitida mamlakatimiz va boshqa ko'plab davlatlar singari hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan, yangi qadriyatlarini ilgari suradigan va ustuvorliklarni o'zgartiradigan ulkan o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ekanligini tahlil etar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlovchi, kommunikativ kompetensiyalariga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (Mirziyoyev, 2022) qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e'tirof etish mumkin.

Mazkur farmonda kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini oshirish, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish, 2026-yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish, davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish, davlat oliy ta'lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash kabi masalalariga katta ahamiyat qaratilgan. Bu esa bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish borasidagi muammolar bugungi kunning dolzarb hisoblangan masala hisoblanadi. Shu bois, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda (2020) mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan. Shu bilan birga, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" (Mirziyoyev, 2019) farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-sonli "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Xodjaboyevning (1992) fikricha, kompetent nuqtai nazaridan yondashish ta'limning yangi sifatiga erishish usuli hisoblanadi. Albatta, bunday qarash tasodifiy yuzaga kelmagan, olimning ta'kidlashicha, bu yerda gap insonning ma'rifatligini o'lchashning yangi birligi haqida gap ketmoqda, chunki bugungi kunda bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim sifati darajasini to'liq o'lchash, uni aniqlash imkonini bermaydi.

Shtikova (2003) "kommunikativ kompetentlikning" bazaviy asosiy tushunchasini kasbiy ahamiyatli kommunikativ-shaxsiy, didaktik va gnostik bilimlar, ko'nikma va tarkibida shuningdek pedagogning kasbiy ahamiyatli sifatleri mavjud bo'lgan va uning kommunikativ faoliyatining samaradorligini ta'minlaydigan kommunikativ faoliyat tajribasining integrativ yaxlitligi sifatida qaraydi.

M.Stefanova ta'lim berishda ta'lim oluvchilarning kommunikativlik kompetentligining ustuvorligini belgilashi kerakligi haqidagi fikrni ilgari suradi, u "o'sib kelayotgan avlod o'z ta'lim olishida ham, hayotida ham kommunikativ-insoniy jihadan savodli, mustaqil bo'lishi lozim" deydi (Akbarova, 2022).

Gulyamova (2019) tadqiqotida bugungi kunda barcha fanlarni o'qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv keng tadbiiq etilishini shuningdek, endilikda o'quvchi-talabalarga fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar berishning o'zi yetarli emasligi, balki hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo'llash malakasini shakllantirib borish kerakligi ayon bo'lib qoldi. Binobarin, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilinishini nazarda tutadi.

N.Muslimovning ta'kidlashicha, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi ta'lim faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Birgalikda o'quv faoliyati tugallangan shaklda darhol va doimiy ravishda berilmaydi va uning mazmuni faqat olingan bilimlar mazmuni bilan chegaralanib qolmaydi, bu shaxsni shakllantirish chegaralarini kengaytirishni anglatadi. Bu bilim va tajribani ularni avlod, ishlab chiqarish, o'zgartirish bilan uzatishning kombinatsiyasi. Talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayonida uning mazmuniga, vositalari va turli usullarining qanday tuzilganligiga alohida e'tibor qaratish kerak, sababi ular talabaga ta'lim olish jarayonida o'quv materialini, uning turlari va shakllarini tanlash qobiliyatini ko'rsatishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ishda oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, maqsadi, vazifalari o'rganildi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida bo'lajak mutaxassislarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, pedagog, psixolog, sosiolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va soha vakillarining yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish jarayonlarni kuzatish amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Uchinchi ming yillikning oxirida dunyoqarashning o'zgarishi aloqa va axborot sohasidagi inqilob bilan yuzaga keldi. Ommaviy kompyuterlashtirish, eng yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish ta'lim, biznes, sanoat ishlab chiqarishi, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy hayot sohalarida ta'sirchan o'zgarishga olib keldi. Ishlab chiqarish va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va joriy etish axborotni to'plash, qayta ishlash va uzatishni tezlashtirdi, bu esa, axborotdan foydalanish imkoniyatlarini tubdan kengaytirish imkonini berdi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar alohida rol o'ynaydi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bir qancha tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. Kommunikativlik tamoyili. Shaxsiy muloqot orqali shaxsni boshqa madaniyatlarning ma'naviy qadriyatlarini bilan tanishtirish.

2. Interaktivlik tamoyili. Haqiqiy hamkorlikning mavjudligini nazarda tutadi, bu yerda asosiy e'tibor muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va guruh ishiga qaratilgan.

3. Haqiqiylik tamoyili. Uning mohiyati o'quv jarayonida materialni o'rganishni rag'batlantiradigan va adekvat xatti-harakatlarga hissa qo'shadigan real vaziyatlarni yaratishdir (Akbarova, 2022).

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muayyan muloqot sharoitida muloqot jarayonida ko'nikma va malakalarni egallashni o'z ichiga oladi. Zamonaviy didaktika oliy kasbiy ta'lim sohasidagi davlat siyosati vazifalarini amalga oshirib, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni faol rivojlantirmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchisi nafaqat intellektual va kognitiv faolligini, balki shaxsiyatini ham ko'rsatishi mumkin bo'lgan didaktik shart-sharoitlarni yaratishga ahamiyat qaratilmoqda.

Bugungi rivojlanib borayotgan ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini har jihatdan o'rganishni taqazo qiladi. Zamonaviy pedagogikada kommunikativ kompetensiya tushunchasi turli yondashuvlar asosida atroflicha o'rganib chiqiladi.

Zamonaviy jamiyatdagi tez o'zgarishlar talabaning kommunikativ kompetensiyasining turli xil kanallar orqali ma'lumotlarni aniqlash, qidirish, almashish va uzatish qobiliyati kabi elementlarining ahamiyatini belgilaydi. Universitet bitiruvchisi uchun kasbiy sohada samarali hamkorlik qilish qobiliyati, aloqa usullaridan mazmunli foydalanish juda muhimdir. Oliy o'quv yurtlari talabalarining kommunikativ kompetentligining eng muhim tarkibiy qismlari boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, o'zaro tushunishga erishish, vaziyatni aniqlashga imkon beradigan o'zaro bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat usullari majmuasini o'z ichiga olishi kerak.

Oliy ta'lim tizimidagi talabalarining kommunikativ kompetentligini samarali rivojlantirish va muvaffaqiyatli rivojlantirish universitetlar o'zaro munosabatlarida ushbu komponentlarni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi. Shuningdek, bu o'quv jarayonida turli usullar, shakl va vositalarni, pedagogik texnikani tanlash va qo'llash xarakteridagi ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi, pedagogik shartlar tizimini aniqlashga imkon berdi.

Talabaning kommunikativ kompetentligining rivojlanish darajasini o'rganishning asosi sifatida o'qituvchi didaktik salohiyat tushunchasidan vositalar, usullar va shakllarning yig'indisi, ajralmas birligi sifatida foydalanishi kerak (Мусаханова, 2022).

Oliy ta'lim tizimi muammolarida asosiy jihatlardan biri sifatida didaktika va pedagogik bilimlarga qaratiladi. Buning yechimi esa o'rganishning mohiyati ya'ni qonuniyatlar, tamoyillar, yondashuvlar va vazifalarni amalga oshirish usul va vositalar tizimini o'rganishni talab qiladi. kommunikativ kompetentlikni o'rganish ularning didaktik imkoniyatlarini tushunish pedagog shaxsiga ta'lim berish jarayonida natijalarni belgilovchi omillarni ko'ra olishiga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari malakalarni shakllantirish, rivojlantirish va baholash jarayonida samarali usul va shakllarni tanlab, ularni to'g'ri qo'llashga imkon beradi.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida didaktik tamoyil bu kommunikativ kompetentlik tizimini rivojlantirishga va tartibga soluvchisiga aylanadi. Shu munosabat bilan "didaktik potensial" tushunchasini amaliyotga joriy etish, uni o'quv jarayonida ko'zlangan maqsadlarga erishish samaradorligini munosib ravishda ta'minlovchi tushuncha sifatida qarashimiz, uning mazmunini, qonuniyatlarini va tamoyillarini ham inobatga olgan holda o'tkazilgan usul, vosita va shakllarining umumiy majmui sifatida belgilash zarur (Штыкова, 2003).

Didaktikaning maqsadi, uning tamoyillari hamda metodikaning alohida komponentlari pedagogik texnologiya darajasida ta'lim vositasi va shakllari birgalikda amaliyotga taqdim etish. Bunda esa bizga talabalarining kommunikativ kompetentligini o'rganishdagi didaktik imkoniyatlarni aniqlash anchayin qo'l keladi. Oliy ta'lim mutaxassislarni tayyorlash sifatini yanada oshirish, tadqiqotimizning maqsadini amalga oshirish jarayonidagi usullar va shakllardan foydalanib, pedagogik faoliyatning turli sohalari uchun mutaxassislarni tayyorlash darajasiga sifatli baho berishga imkon beradi. Maqsadga erishish jarayonida o'rganish, shuningdek, ta'lim, kognitiv va muloqotni rivojlantiruvchi vazifalarni hal qiladi ((Штыкова, 2003).

Didaktik prinsiplar kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda imkoniyatlari kommunikativ kompetentlik darajasini baholash jarayonida o'qituvchi va talabaning didaktik

o'zaro ta'siri turli xil vositalar, usullar va baholash shakllaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi va ular kompetensiyani rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarining kommunikativ kompetensiyasini interfaol tadqiq qilish usullarini shakli va qo'llaniladigan usullariga qarab uch turga bo'lish mumkin:

- bahs-munozarali: suhbat, guruh bilan tashkillashtirilgan muhokama, vaziyatlarni tahlil qilish va yozma tarzda muammoli masalani yo'nalishini baholash faoliyatining shunday shakllari, binobarin, ma'ruza matnlari, ijodiy topshiriqlar hususan, insho, hisobot, insho, hisobot);
- o'yin: rolli o'yinlar, ishbilarmonlik o'yini, vaziyat usuli va boshqalar;
- trening: loyiha usuli, portfolio ishlab chiqish, kommunikativ treninglar.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib, loyiha usulida muhokama elementlari va o'yin shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin, ammo ularning barchasi treningning bir qismi sifatida qo'llaniladi. Oliy ta'lim tizimida talabalarni interfaol o'qitish jarayonida o'rganish o'quv jarayoni muhiti bilan o'zaro ilmiy aloqada kommunikativ kompetentlik mazmunini o'zlashtiradi, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda yangidan-yangi tajribaga ega bo'ladi. O'zaro tushunish, hamdardlik, muloqot sheriklariga nisbatan bag'rikenglik ko'nikmalari rivojlanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy masalardan biri hisoblanadi Bu borada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar negizida bo'lajak mutaxassislarining ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayoni shunday tashkil etish kerakki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, ijodkorlik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashga e'tibor qaratish.

Ikkinchidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetentligini zamon talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini amalga oshirish.

Uchinchidan, kompetensiya, ayniqsa, har bir soha vakillarida kasbiy kompetensiya bo'lajak mutaxassislarining jamiyatda tutgan o'rnini belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo'lishini ularga anglab yetishlariga erishish.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Akbarova S. (2022) *Some aspects of developing creative competences in the process of independent students* //Архив научных исследований. – Т. 3. – №. 1.

Akbarova S. (2022) *Ta'limni raqamlashtirish davrida talabalarni mustaqil ta'limini tashkil qilish* //Архив научных исследований. – Т. 2. – №. 1.

Gulyamova M.X. (2019) *Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv*// : Avtoref. dis. ... (PhD) ped nauk / Gulyamova M.X. – T.: 45-b

Mirziyoyev Shavkat (2019) *O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019-yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni.* <https://lex.uz/>

Mirziyoyev Shavkat (2022). *“2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.* <https://lex.uz/>

Qonun (2020) *O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni* – T.: 2020 yil, 23 sentyabr //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: www.Lex.uz

Джон Равен. *Компетентность в современном обществе*. М., «Когито-Центр», 2002. – 396 с.

Мусаханова Г.М. (2022) Направления развития навыков самостоятельного обучения студентов в условиях цифровизации экономики. *Международный журнал исследований и обзоров социальных наук*, 5(1), 64- 67. <https://doi.org/10.47814/ijssrr.v5i1.160>

Ходжабаев А.Р. (1992) *Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда: Дисс. ... докт. пед. наук.* – Т.:

Штыкова Т.В. (2003) *Формирование коммуникативно-дидактической компетентности у будущих учителей. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.* Челябинск. 186 с.